

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

| | |
|--|-----|
| O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi..... | 332 |
| U.N.Olimov | |
| Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi | 336 |
| M.Q.Tolibboev | |
| O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analariga doir mulohazalar | 340 |
| X.S.Jumanazarov | |
| Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari..... | 346 |
| Sh.N.Jo'rayev | |
| Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni..... | 351 |
| O.M.Normatov | |
| O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari..... | 356 |
| D.G'.Mirzayev | |
| "Turkiston viloyatining gazetasи" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili | 361 |
| A.O.Tairov | |
| Anushteginiylar sulolası davrida ijtimoiy hayot..... | 369 |
| P.A.Nabiyev | |
| "Farg'on'a vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'anaları (Qorategin tojiklari misolida)" | 373 |
| A.A.Mamadjanov | |
| Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili..... | 378 |
| P.A.Arslonzoda | |
| Tasviри makotib ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айнӣ | 382 |

ADABIYOTSHUNOSLIK

| | |
|--|-----|
| A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova | |
| Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir | 389 |
| Z.J.Pardayeva | |
| Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman | 393 |
| H.Jo'rayev | |
| Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni..... | 401 |
| K.A.Jamahmatov | |
| Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi | 404 |
| X.Jo'rayev, M.Ismoilova | |
| Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi | 410 |
| I.I.Rustamova | |
| Dramada sahnada ko'rinnmaydigan qahramon va uning badiiy talqini | 413 |
| M.A.Jo'rayeva | |
| Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti | 417 |
| M.Islomova | |
| Taqlid va Tasvir | 421 |
| D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov | |
| Isajon Sulton hikoyalarida shamol timsoli | 424 |
| X.T.Mirzaev | |
| Talқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Ғиёсиддин | 428 |
| N.Q.Bo'riyeva | |
| J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti..... | 433 |
| M.Sh.Dehqonova | |
| Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid..... | 440 |
| G.A.Mashrapova | |
| Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari..... | 445 |
| Q.V.Yo'lichiyev | |
| Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili | 449 |
| B.N.Isakova | |
| Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati | 456 |



UO'K: 398.2

**ERTAK SYUJET TIPLARIDA QIDIRUVGA QARSHI SAFAR (ANTIQIDIRUV) MOTIVI
TURLARI**

**ТИПЫ МОТИВА ПУТЕШЕСТВИЯ ПРОТИВ ПОИСКА (АНТИКВАРИАТА) В
СКАЗОЧНЫХ СЮЖЕТНЫХ ТИПАХ**

**TYPES OF TRAVEL MOTIVE VERSUS SEARCH (ANTIQUES) IN FABULOUS STORY
TYPES**

Mashrapova Gulsanam Axadovna 

Farg'ona davlat universiteti adabiyotshunoslik kafedrasи o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

O'zbek xalq ertaklari mavzu jihatidan rang-barang. Qahramonlar va motivlarning bir tarafdan takrorlanuvchi, ikkinchи bir jihatdan o'ziga xos funksiyaviy kombinatsiyalari ko'plab yangi, shu bilan birga, jahon xalqlari ertaklari, xususan, CYC, ATU kabi xalqaro kataloglar bilan juda yaqin o'xshashlikka ega syujetlarni yuzaga kelishiga sabab bo'lgan. Lekin, ta'kidlash kerakki, milliy-hududiy, ijtimoiy-madaniy farqlar xalqimiz og'zaki xazinasining yetakchi xususiyati sanaladi va bu har bir janr ifodasida yaqqol namoyon bo'ladi. Har qanday syujet yoki motivni qiyosan o'rganish bu o'xshashlik va farqlarni aniqlashga yordam beradi.

Аннотация

Узбекские народные сказки разнообразны по тематике. Повторяющиеся, с одной стороны, и специфические функциональные сочетания героев и мотивов с другой, стали причиной появления множества новых, в то же время, сюжетов, имеющих очень близкое сходство с сказками народов мира, в частности, с такими международными каталогами, как CYC, ATU. Но следует отметить, что национально-территориальные, социокультурные различия являются ведущей чертой устной сокровищницы нашего народа, и это ярко проявляется в каждом жанровом выражении. Сравнительное изучение любого сюжета или мотива может помочь выявить эти сходства и различия.

Abstract

Uzbek folk tales are diverse in subject matter. Repetitive, on the one hand, and specific functional combinations of characters and motifs, on the other, have caused the appearance of many new, at the same time, plots that bear a very close resemblance to fairy tales of the peoples of the world, in particular, with such international catalogues as CYC, ATU. But it should be noted that national-territorial, socio-cultural differences are the leading feature of the oral treasury of our people, and this is clearly manifested in every genre expression. A comparative study of any plot or motif can help identify these similarities and differences.

Kalit so'zlar: safar motivi, epik syujet, uzoqlashish motivi, xalqaro katalog, syujet tiplari, incest, fetishizm.

Key words: motif of journey, epic plot, motif of distance, international catalogue, types of plot, fetishism.

Ключевые слова: мотив путешествия, эпический сюжет, мотив отчуждения, международный каталог, типы сюжетов, инцест, фетишизм.

KIRISH

Ertaklarda dastlabki tugun vazifasini o'tovchi funksiyalardan biri qahramonning uydan ketishiga sabab bo'lgan voqeа hisoblanadi[1:122]. Ana shundan so'ng voqealar rivojlanadi, qahramonlar sarguzashtiga yo'l ochiladi. Qahramonning o'z makonini tark etib, safarga chiqishiga turli sabablar mavjud. Shuning uchun ularni bir qancha guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq.

Dunyo xalqlari va o'zbek xalq ertaklarda eng ko'p uchrovchi syujet tiplarini qidiruv safari bilan bog'liq motivlar tashkil etadi. Lekin uning aksi bo'lgan "antiqidiruv": "qochish", "haydash", "tark etish" bilan bog'liq safarlar ham o'zak motiv sifatida syujetni shakllantirishga xizmat qiladi. O'zbek

xalq ertaklarida o'z oila a'zolari bilan konflikt natijasida qahramonning uyni tark etishi bir necha ko'rinishlarga ega bo'lib, ularning ayrimlari xalqaro kataloglardagi syujet tiplari bilan uyg'un keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Qahramonning o'z uyini tark etishiga majbur qilgan yoki kimdandir qochishiga sabab bo'lgan safarlar yetakchi motiv sifatida kelgan syujet tiplariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Insestning oldini olish: ATU 313E* 722; CYC 510B, 706C; *Beryozkin K120*. Yaqin oila a'zolari o'tasidagi nikoh – insest qoralanuvchi syujet tiplari dunyoning barcha xalqlari ertak syujetida mavjud. "Zulm va qasos"[2:238-240] nomli o'zbek xalq ertagida ota o'z qiziga uylanmoqchi bo'lganining sababi marhum xotinidan qolgan kavush mamlakatning barcha ayollari orasidan faqat qiziga loyiq kelgani bilan izohlanadi. Podshoh "shu kavush kimga to'g'ri kelsa, shunga uylanaman" degani uchun o'z qizini nikohiga olmoqchi bo'ladi. Shu sababdan qiz uyni tark etishga majbur bo'ladi va uning sarguzashtlari boshlanadi. O'zini tanitmay kigiz kiyib yurishi, hamma undan jirkanishi, mehribon shahzodaning xizmatini qilib, keyin unga turmushga chiqishi va baxtli bo'lishi Yevropa ertaklari syujeti bilan bir xil. Faqat unda qiz mental xususiyatlardan kelib chiqib, kigiz emas, cho'chqa terisini yopinib yuradi ("Cho'chqa teri – CYC 510B"). Otaning o'z qiziga uylanishni xohlashi "G'aflatjon"[3:152-169] nomli ertakda ham aks etgan bo'lib, qiz uyidan qutulishi bilanoq podshoh ertakda "unutiladi". Lekin qiz boshqalardan ham ko'p jabr-zulm ko'radi. "Zulm va qasos"da esa podshoh qizini ko'p yillar izlagani aytildi va yakunda o'z jazosini oladi. CYC katalogida "Sabrli Yelena" (706 C) sarlavhasi ostida ham shunga o'xhash syujet tipi keltirilgan. Faqat farq shundaki, unda ota shahzodaning rafiqasiga aylangan qizini saroyga kirib, o'ldiradi. Lekin qiz ertak mo'jizasi bilan tirladi va baxtli hayotini davom ettiradi. O'zbek variantida esa ota qochib ketgan qizini axtarib ketayotib, qaroqchilar hujumiga duch keladi. Bor-budidan ayrilib, qalandar bo'lib, qizi yashab turgan saroyga keladi. Qiz otasini tanib, shahzodaga uni jazolashni aytadi.

Yaqin qarindoshlar o'tasidagi nikohdan qochish "Yoriltosh" ertagida ham mavjud bo'lib, KRJ katalogi mualliflarining fikricha, O'zbekistonda ushbu ertakning 50 dan ortiq turi aniqlangan[4:390]. Darhaqiqat, bizning Andijon viloyati Izboskan tumanida yashovchi Sanobarxon Isroilovadan yozib olgan variantimizda insest tufayli qizning uydan qochishi unutilgan va "opa-uka ko'chada o'ynab yurishganda chaqmoq chaqib, katta tosh yoriladi va opasi uning ichiga kirib qoladi"³² deb izohlangan.

Akating singilga uylanmoqchi bo'lgani va shu vajdan opa-singilning uydan qochishi (CYC – 313E=AA* Beryozkin K121– *Singil unga uylanmoqchi bo'lgan akasidan qochadi*) personajlar o'tasidagi konfliktni asoslashga xizmat qilgan. Xalqning fetishistik qarashlari toshning qiz iltijosi bilan yorilishi va uni bag'riga olib, boshqalardan himoya qilishi o'zbek ertaginining asosiy mohiyatini ochib beradi. Kitobda qayd etilishicha, Yevropa va Rossiyada shunga o'xhash 450 dan ortiq syujet mavjud, lekin ularda aynan mana shu tosh bilan bog'liq episod yo'q. Yevropa ertaklari namunalarida qiz yer ostiga kirib ketadi.

2. Mo'jizaviy qochish: KRJ13 (ATU 313A,B,C; CYC 313F, *Beryozkin L72*.) Safar ketish va qaytish kabi tarkibiy qismlardan iborat ekanligini yuqorida aytib o'tgan edik. Ba'zi ertaklarda qahramonning maqsadga yetgunigacha bo'lgan safarining tafsilotlari batapsil tasvirlanadi hamda qaytish yo'li deyarli aks ettirilmaydi. Ayrim ertaklarda esa sarguzashtlar qahramon to o'z makoniga yetib kelgunicha yoki uni ta'qib etib kelayotgan raqib mahv etilgunicha davom etadi. Yalmog'iz kampir obrazi mavjud ertaklarda qochayotgan qahramon unga qarshi jodugarning o'ziga tegishli narsalar (oyna, taroq, igna)dan foydalanadi. Kundalik hayotda ishlatalidigan oddiy buyumlar qochayotgan qahramon uchun beminnat yordamchiga aylanadi. Taroq o'rmonga, igna changalzorga, oyna daryoga evrilib, raqibning yo'lini to'sadi ("Ilon og'a" ertagida qatiq muzga aylanadi – **G.M.**). Aslida, "ertakning o'ziga xosligi sehrli to'siqlari uchta, lekin hozir an'anaga istisno holatda faqat ikkita narsa uloqtiriladi va bu hikoya usuliga o'rnashib qolgan. Ular deyarli yengib bo'lmaydigan to'siqlarga aylanadi, qochqinlarga sehrli kuch beradi"[4:148]. Shuning uchun ushbu motiv barcha kataloglarda "mo'jizaviy qochish" deb nom olgan. "Bo'yvachcha bilan pari", "Olmos botir", "Ilon og'a", "Jamila" kabi o'zbek xalq ertaklarida "mo'jizaviy qochish" yalmog'izning suvgi

³² Sanobarxon Isroilova. 65 yosh. Andijon viloyati Izboskan tumani Lo'g'umbek qishlog'i. Yozib oluvchi: G.Mashrapova. 18.02.2023.

ADABIYOTSHUNOSLIK

cho'kib ketishi bilan yakunlanadi. "Savraxon" ertagida esa jodugar g'aroyib to'siqlardan o'tib ketadi. Lekin qahramonning oti uni halok qiladi[5:409-412].

3. Qo'lsiz qiz: KRJ 100 (ATU 706, CYC 706). Ushbu syujetda ham qahramon kimningdir zulmi tufayli uyni tark etishi hamda safar davomida bir qancha sarguzashtlarni boshdan kechirib, baxtga erishishi aks etgan. "Hasan bilan Huriliqo"[6:94-105] nomli o'zbek xalq ertagi, T.Rahmonov ta'biri bilan aytganda, "begunoh jabrlanganlar turkumi"ga mansub. Ertak qahramonining tuhmat bilan uydan quvilishi aks etgan syujetlarda o'gay ona zulmi tufayli uyini tark etishga majbur bo'lgan farzandlar, boshqalar ig'vosiga duchor bo'lgan turmush o'rtoqlar, kundoshlar makrining qurboni bo'lgan malikalarning o'z makonini tark etgandan keyingi sarguzashtlari aks etadi. "Qo'lsiz qiz"ning ulardan farqli tomoni bunda Huriliqo ismli qiz yangasi tomonidan jabr ko'radi hamda ig'volarga ishongan o'z akasi uning qo'llarini chopib, uydan haydab yuboradi. Shundan keyingi voqealar qizning safardagi ko'rgan-kechirganlardan iborat bo'ladi. Ertakda qizning podshohnning poliziga o'g'irlikka tushib, qo'li yo'qligi uchun qovunlarni g'ajib yeyishi, ikki farzandi bilan ham saroydan quvilgach, daryodan o'tayotganda bolalarining suvga tushib ketishi, lekin ularni olishga imkon yo'qligi juda ta'sirchan ifodalangan. Xuddi shu o'rinda syujetga an'anaviy epik homiy – Xizr kirib keladi. U Huriliqoning farzandini qaytarib olib keladi va qo'llarini asliga qaytaradi. Xizrning yordami bilan qiz cho'li biyobonda bog', hovli-joy qilib yashayveradi. Ertak so'ngida esa o'zini izlab kelgan akasi va turmush o'rtog'i bilan topishadi.

Ertak qahramonining qo'lsizligi uydan haydalgan boshqa personajlardan farq qilib turadi. Shuning uchun ko'rsatkichlarda u alohida nom ostida ajratib berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'rganishlardan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek xalq ertaklari tarkibida qidiruvga qarshi safar- "antiqidiruv" xuddi "izlash, qidiruv" safari kabi juda keng tarqalgan faol motivlardan birdir. Xalq ertaklarida uyni tark etishga qaratilgan boshqa motivlar ham mavjud bo'lib, ular orasidagi nozik farqni ilg'ay olish muhim hisoblanadi. Misol uchun folklorshunoslikda ko'p bor fikr bildirilgan "uzoqlashish" motivi, ya'ni bo'lajak qahramon tug'ilish vaqtida otaning uyda bo'lmasligi, ovga yoki jangga ketishi. Bu o'rinda ertak va dostonlardagi farzand tilab yoki farzand yo'qligidan tarki dunyo qilib yo'lga chiqish safar-qidiruvni, bola tug'ilajak vaqtida undan, uydan uzoqlashish esa qidiruvga qarshi safar, ya'ni uzoqlashish motivini yuzaga keltirmoqda. Bunda qahramon nimanidir izlab, ehtiyoj yuzasidan yo'lga chiqmaydi, balki bor narsadan uzoqlashish uchun safarga chiqadi. Biroq "qidiruvga qarshi safar" "uzoqlashish" motividan kengroq tushuncha bo'lib, turli vaziyatlarda ertak qahramonlarining o'z xohishlari bilan kimdandir yoki nimadandir atay uzoqlashishini, tark etish maqsadida safar qilishini anglatadi. Jumladan, "Baxtiqaro" ("Jamila") nomli o'zbek xalq ertagida ota-onha "baxti qaro" deb bashorat qilingan qizlarini uzoq yurtga tashlab kelish uchun yo'lga chiqishadi. Yo'lda tilsimli qo'rg'onga duch kelishadi. Suv ichish uchun to'xtashadi va qiz shu yerda qolib ketadi[7:50-56]. Qizning keyingi taqdiri, qiziqarli sarguzashtlari syujet asosini tashkil etadi. Ota-onanining farzand tilab emas, aksincha, undan voz kechish uchun safar qilishi kam uchraydigan holat bo'lsa-da, ertakning aynan mana shu qismi keyingi voqealar uchun "poydevor" vazifasini o'tagan. Ushbu syujetdagi safar motivining yuqorida tavsiflangan syujet tiplarida mavjud safardan farqi, uning tashkillashtiruvchi vazifasidir. "Qo'lsiz qiz", "Insestni oldini olish" kabi syujet tiplarida qahramonning harakati voqealarining asosiy liniyasini, "o'q tomiri"ni tashkil etadi. "Baxtiqaro" da esa safar qahramonni asosiy voqealarga "olib keluvchi" vazifasini bajaradi. Bu yerda safarni ixtiyor qiluvchi uning o'zi emas, atrofidagi kishilar, anig'rog'i, ota-onasi. Biroq bir qarashda ikkilamchi unsurdek ko'ringan safar, aslida, ushbu epik matn uchun zaruratdir. Ya'ni ota-onanining qizni tashlab kelish uchun safari bo'lmasa, tilsim qo'rg'onga duch kelinmaydi, tilsimli qo'rg'onning bo'lmasligi syujetning barcha voqealarini yo'qqa chiqaradi.

Ushbu motiv sehrli-fantastik ertaklardagi kabi hayotiy-maishiy hamda hayvonlar haqidagi ertaklar syujetida ham mavjud. Misol uchun, "Guloyim" nomli o'zbek xalq ertagida qahramon yomon kasallikka chalingani tufayli qishloq doshlari tomonidan haydab yuboriladi. "Susambil", "Botir echki", "Echki, qo'y va bo'rilar" kabi hayvonlar haqidagi ertaklarda esa haqsizlikka uchragan jonivorlar xo'jayinlarining zulmidan qochib ketadilar.

XULOSA

Umuman olganda, qidiruvga qarshi safar – "antiqidiruv" motivining ertak matni bo'yicha tahlili bizga ko'plab yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Hech bir motivni bir o'zini,

alohida o'rganib bo'limganidek, safarning ushbu turi ham yondosh motivlar munosabati, ertakning mavzuiy turlari, ichki bo'linishlar natijasida epik matn tarkibida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Misol uchun o'gaylik turkumi yoki yaqin qarindoshlar orasidagi hasad tufayli uyni tark etib safarga chiqish va turli sarguzashtlarni boshdan kechirib, ertak so'ngida baxtli yakunga yetib kelish alohida-alohida tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolardandir. Bu esa yangi ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'la oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Жалолов F. (1976) Ўзбек халқ әртаклари поэтикаси. – Тошкент: Фан.
2. O'zbek xalq ertaklari. 3 jiddiik. III jild / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. (2007) – Toshkent: O'qituvchi.
3. Намангандар / Ёзиб олиб, нашрга тайёрловчилар: Т. Гозибоев ва б. (1998) – Тошкент: Шарқ.
4. Keller G., Rachimov Ch., Jurayev M. (2018) Typenkatalog Usbekischer. Zauhermarchen (Klassifizierung mit Kommentaren). Band I. – Freiburg: Vorabdruck.
5. "Саврахон" әртаги / Сумбул қуш (сөхрли әртаклар) / Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. 19-жилд / Тузувчи: М.Жўраев. Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, К.Имомов, М.Жўраев. (2022) – Тошкент: Faafur Fu'lom.
6. Сув қизи. Фантастик әртаклар / Нашрга тайёрловчилар: М.Афзалов, З.Хусайнова, Н.Сабуров. (1966) – Тошкент: Бадиий адабиёт.
7. "Бахтиқаро" әртаги // Девқиз. Ўзбек халқ әртаклари / Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи: К.Имомов. (1994) – Тошкент: Фан.